



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

Qibray tumani

21 avgust 2025 yil.

1-9-6/ 220-son

2025/2026-o'quv yili uchun kunduzgi va masofaviy ta'lim shaklida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq 2025-2026-o'quv yilida kunduzgi va masofaviy ta'lim shaklida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlarini tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga kunduzgi va masofaviy ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilish uchun Suhbat komissiya raislari va a'zolari **1-ilovaga;**

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga kunduzgi va masofaviy ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat o'tkazish jarayonlari jadvali **2-ilovaga;**

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari baholash mezonlari **3-ilovaga;**

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga kunduzgi va masofaviy ta'lim shakliga qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijasi bo'yicha shikoyat arizalarini ko'rib chiqish uchun Apellatsiya komissiyasi tarkibi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qabul komissiyasi va suhbat komissiyalariga:

ro'yhatdan o'tgan abituriyentlar uchun kirish imtihoni 2025-2026-o'quv yilning **27-28-avgust** kunlari o'tkazish;

imtihon jarayonlarini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keying oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi

nizom” talablariga qat’iy rioya qilgan holda, adolatli, shaffof, yuqori saviyada o’tkazishni tashkil etsin.

3. O’quv ishlari bo’yicha prorektor S.Boboyev, Qabul komissiyasi (Ye.Berdibayev, X.Donayev) hamda Suhbat komissiyasi raislari va a’zolariga:

suhbat jarayonlarini ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga kunduzgi va masofaviy ta’lim shakllariga qabul qilish tartibi to’g’risida”gi Nizomiga qat’iy amal qilgan holda o’tkazish;

suhbat jarayonlarida abituriyentlarni baholashda qonuniylik, adolatlilik, xolislik tamoyillariga qat’iy rioya qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Suhbat natijalariga ko’ra talabalikka tavsiya etilganlar to’g’risidagi ma’lumotlarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga suhbat natijalari e’lon qilingan kundan keyin 3 (uch) kun muddatda yetkazish qabul komissiyasi mas’ul kotibi Ye.Berdibayev zimmasiga yuklatilsin.

5. Apellatsiya komissiyasiga:

Suhbat natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida shikoyat arizalarini qabul qilish;

Shikoyat-arizalarini **3 (uch)** kun muddatda komissiya a’zolari ishtirokida videoyozuv asosida obyektiv, xolisona va adolatli ko’rib chiqish va xulosa berish;

shikoyat muallifini xulosa bilan tanishtirish va asoslangan ma’lumotlar asosida tushuntirish;

xizmat zaruriyati tufayli komissiya ishiga qo’shimcha mutaxassislarni jalb qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Moliya-iqtisod ishlari bo’yicha prorektor D.Mamadiyarov, Bosh buxgalter A.Botirov, Reja-moliya bo’limi boshlig’i R.Niyazova, Texnik foydalanish va xo’jalik bo’limi F.Abdullayevga:

suhbat o’tkaziladigan auditoriyalarni ichimlik suvi, ruchka, qog’oz va antiseptik vositalar bilan ta’minlash;

suhbat o’tkaziladigan binolarning mo’tadil haroratini saqlash;

suhbat kunlari komissiya a’zolari hamda nazoratchilar uchun tushliklar tashkillashtirish maqsadida davlat xaridlari to’g’risidagi qonunchilik normalariga rioya etgan holda tadbirkorlik subyekti bilan shartnoma tuzish;

suhbat jarayonlariga boshqa tashkilotlardan taklif qilingan mutaxassislik komissiya raislari va a’zolari mehnatiga belgilangan tartibda soatbay asosda ish haqi to’lanishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

7. Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig’i A.Alijanovga:

suhbat jarayoni to’liq videokuzatuv ostida o’tkazilishini va suhbat jarayonini ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilishni ta’minlash;

suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida **3 (uch)** yil Universitetda saqlanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.Boboyev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



N.Oblomuradov